

## **ZAMONAVIY SHAROITDA MAKTABGACHA TA'LIM O'QUV-TARBIYA JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH MASALALARI**

**Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi**

Andijon davlat universitetining

Pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi fakulteti Ta'limda

axborot texnologiyalari ta'lim yo'nalishi

1-bosqich magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim o'quv-tarbiya jarayonida multimediy texnologiyalarini tadbiq etish masalalari yoritildi. Maqolada MTTlarda ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi an'anaviy uslublarga nisbatan malum bir afzalliklarga ega ekanligi yoritildi.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia texnologiyasi, multimediali kompyuter ta'limi, masofaviy ta'lim.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается применение мультимедийных технологий в процессе дошкольного образования в современных условиях. В статье подчеркивается, что мультимедийные технологии, применяемые в образовательном процессе в МТЦ, имеют определенные преимущества перед традиционными методами.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, информационно-коммуникационные технологии, мультимедийные технологии, мультимедийное компьютерное образование, дистанционное обучение.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the application of multimedia technologies in the pre-school education process in modern conditions. The article highlights that multimedia technology applied to the educational process in MTTs has certain advantages over traditional methods.*

***Keywords:** Preschool education, information and communication technologies, multimedia technology, multimedia computer education, distance learning.*

### **KIRISH**

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, oliyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo'lish, odob-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so'zamollik,

xushsoʻzlilik, ilmi boʻlish kabi xislatlar bilan boyitish inson kamolotining meʼyori boʻlib kelgan. Chunki komil insonning maʼnaviyati yuksak boʻladi Yuksak maʼnaviyatga ega boʻlgan kishi esa oʻz xalqining tarixi, urf-odati, qadriyati hamda anʼanalari, madaniyatini chuqur biladi va unga rioya qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha taʼlim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni hamda “Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha taʼlim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha taʼlim muassasalari davlat va nodavlat tarmogʻini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan taʼminlash, maktabgacha taʼlim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, taʼlim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy taʼlim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, maʼnaviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qoʻyildi. Bugungi taʼlim-tarbiya jarayonida jiddiy islohotlar, tub burilishlar roʻy bermoqda, taʼlim mazmunini yangilash bilan aloqador boʻlgan katta salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun nihoyatda katta kuch va mehnat sarflanmoqda. Ijobiy oʻzgarishlarni yuzaga keltirish uchun davlat ham, jamiyat ham toʻla safarbar qilingan Maktabgacha yosh – har bir inson hayotida oʻchmas, yorqin vaqtdir. Aynan shu davrda bolaning turmushidagi etakchi sohalar odamlar, tabiat, narsalar olami bilan aloqada oʻrnatiladi; madaniyatni, umuminsoniy qadriyatlarni bila boshlaydi, salomatligiga zamin tayyorlanadi. Maktabgacha bolalik shaxsning shakllanishi, bolaning oʻz – oʻzini bilishi asoslari shakllanishi yuz beradigan davr. Zero, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021 yillarda Maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorida belgilab qoʻyilganidek, bundan buyon yosh bolalarni maktabgacha taʼlim muassasalariga qamrovini oshirish va ushbu muassasalar soni koʻpayishini inobatga olgan holda undagi taʼlim-tarbiyaning sifati hamda samaradorligini oshirish kun tartibidagi dolzarb masala boʻlib qoladi. Maktabgacha tarbiyaning vazifasi bola taraqqiyotini tezlashtirish, uni tezroq oʻquvchi qilib qoʻyish emas, balki eng avvalo har bir bola oʻz imkoniyat vaqobiliyatlarini namoyon qilishga sharoit yaratishdan iborat.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga taʼlim

berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Bu borada o'quv axborotlarining mazmundorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lami qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJA**

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning birinchi turi bo'libgina qolmay, balki ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi birinchi pog'ona hamdir. Maktabgacha ta'lim tashkilot(MTT)larida ta'lim va tarbiya jarayonini qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, tarbiyalanuvchi bolalar, shunchalik ta'limning keyingi turlarida qiynalmasdan muvaffaqiyat qozona olishlariga imkoniyat yaratiladi. Maktabgacha ta'lim, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga, o'qishga bo'lgan havaslarini uyg'otishga muntazam ravishda ta'lim olishlariga imkon yaratadi va maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga Davlat talablari va maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ham, "eksperimental maktabgacha muassasalar asosida yangi pedagogik texnologiyalar aprobatsiyasini o'tkazish va ularni ommaviy amaliyotga tatbiq etish", "Yangi texnik vositalardan foydalanish"larga e'tibor qaratilgan. Ushbu talablarni qisman amalga oshirish maqsadida MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish uchun samarali multimedia texnologiyasi ishlab chiqildi. MTTlarda multimedia texnologiyasining tub mazmuni-multimediali kompyuter ta'limni amalga oshirishdan iborat. MTTlarda ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan multimedia texnologiyasi an'anaviy uslublarga nisbatan malum bir afzalliklarga ega. Jumladan:

- bolalarning fikrlash qobiliyatini oshiradi;
- bola bir vaqtning o'zida ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi);

- an'anaviy usulga nisbatan bolalarga o'rgatiladigan materiallarning hajmi ortadi;
- mashg'ulotlarning samaradorligi oshadi;
- MTT bolalarining kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga yordam beradi;
- didaktik materiallarni animatsiyalar orqali ko'rsatish imkoniyati mavjud;
- turli xil jangarilik, qo'poruvchi o'yinlar o'rniga ta'limiy-rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish mumkin.

MTTlarda multimedia texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, bu xususiyatlarni o'rganish texnologiyalarni joriy etish jarayonida bolalarning yoshlarini hisobga olish va didaktik materiallarni ularga mos tanlash, ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik ta'sir etish usullarini o'rganish va joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Multimedia texnologiyasidan va uning asosiy vositasi bo'lgan kompyuterlardan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar (masalan, Rossiya)ning olimlaridan S.V.Gurev, N.Z.Frolova, N.I.Klifsova, V.P.Kustova, L.A.Savina, N.M.Klimeshova, M.V.Osmakovalar, AQShda multimedia texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha D.Jonassen, R.Grabindger, S.Carver, R.Lehrer, D.Davidson, A.Mullon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar. Ma'lumki, multimedia texnologiyasi, asosan, kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Ammo, hozirgi kunda respublikamiz MTTlarining ko'pchiligi kompyuterlar bilan to'la ta'minlanmagan. Birinchi muammodan vaqtinchalik chiqish uchun, ayrim MTTlarda kompyuterli mashg'ulotlarining birinchi bosqichini televizor va DVD qurilmalari orqali amalga oshirilishining imkoniyati mavjud. Buning uchun, dasturli yoki rolli (ijroli) multimedia ta'lim vositalari tayyorlab diskka ko'chiriladi.

Ikkinchi muammo shundan iboratki, multimediali mashg'ulotlar asosan kompyuter erdamida amalga oshirilishi tufayli tarbiyalanuvchilar ular bilan elementar ishlash darajasiga ega bo'lishlari lozim. Bu o'z navbatida tarbiyalanuvchilarda kompyuter savodxonlikni shakllantirilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullangan, "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga quyiladigan Davlat talablari"da minimal talablar qatorida bolalar 15-20 daqiqadan ko'p vaqt kompyuterda shug'ullanishiga yul qo'ymaslik ta'kidlangan. Tarbiyalanuvchilarning kompyuter

savodxonligini shakllantirish uchun MTT kamida bitta shaxsiy kompyuter bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Uchinchi muammo, MTT pedagog-tarbiyachilarining o'zlari ham kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlari lozim va shu bilan birga multimedia texnologiyasini o'zlashtirishlari zarur

Hozirgi davrda, multimedia texnologiyasidan oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, umumiy o'rta-ta'lim maktablarida foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini bo'lgan MTTlarda ham multimedia texnologiyasidan foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Jumladan, MTT tarbiyalanuvchilariga harflarni o'rgatishda elementar matematik tushunchalar bilan tanishtirishda, ijobiy va salbiy ekologik ta'sirlarni bayon qilishda, ta'limiy va rivojlantiruvchi kompyuterli o'yinlarni amalga oshirishda foydalaniladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Masofali ta'lim o'qitishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ta'lim tizimining barcha sohalarida o'z o'rnini topmoqda. Jumladan, Internet tarmog'idagi o'quv materiallaridan keng foydalanilmoqda. Internetdan olinadigan materiallarning aksariyati multimediali taqdimot shaklida yaratilgan. Masalan, MTTlar uchun "Kimning uyi qayerda?", "Uy yasash" taqdimotlari va turli xil kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Shunday qilib, MTT tarbiyachilari multimedia to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lganlarida, undan MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanishlari oson kechadi.

### **REFERENCES**

1. Bikbayeva N.U., Umarova T. Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish. – Toshkent: Uz.PFITI, 1995.
2. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. -313 b
3. Begmatova N.X. Bog'cha bolalarining bilimni baholashda multimedia texnologiyasidan foydalanish. Qarshi DUaxborotnomasi. 2009. -№2. –B. 63-10.
4. Begmatova N.X. Maktab ta'limiga kompyuter savodi bilan... // Maktabgacha ta'lim. Ilmiy – metodik oylik jurnal . – T.: 2009. -№ 6. –B. 11-12.
4. F.R.Qodirova, Z.R. Qodirova, F.N.Vahobova O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" T.2008-yil
5. <http://www.botik.ru/ICCC/NewPage/ICCCpageRus/> - Xalqaro bolalar kompyuter markazi loyixasi sayti.